

MAVZU YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: IMKONIYATLAR VA XAVFLAR

Toir Xolmirzayev

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o‘qituvchi

Mayram Ochilova
2-kurs I-101-23 guruh talabasi

Annotatsiya

Maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida yashil iqtisodiyot va raqamlashtirishni o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning eng asosiy omili sifatida berilgan. Barqaror rivojlantirishda tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatdan foydalanish sifatini oshirishda raqamlashtirish innovatsiya sifatida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, Iqlim bo‘yicha Parij bitimi, Yashillashtirish, raqamli texnologiyalar, muqobil energiya manbalari, barqaror rivojlanish.

Zamonaviy dunyoda yashil iqtisodiyot mavzusi so‘nggi bir necha yil ichida eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iborat. Bunga texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi.

Yashil iqtisodiyot – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni samarali boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta’minalash orqali iqtisodiy rivojlanishni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu iqtisodiy modelning asosiy maqsadi – ekologik zarar yetkazmagan holda iqtisodiy o‘sishni ta’minalash va kelgusi avlodlar uchun barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratishdir.

Barqaror rivojlanish esa iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni muvozanatli ravishda boshqarishni nazarda tutadi. Bu yondashuv iqtisodiy o‘sishni kuchaytirish bilan birga, atrof-muhit va jamiyat manfaatlarini ham hisobga oladi.

Yashil iqtisodiyotning imkoniyatlari

- Resurslardan samarali foydalanish** Yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo’llash resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Bu esa resurslarning kamayib ketishini oldini olish va energetik xavfsizlikni ta’minalash imkonini beradi.
- Yangi ish o‘rinlari yaratish** Qayta tiklanuvchi energiya sektori, ekologik toza texnologiyalar ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalar yangi ish o‘rinlarini

yaratadi. Masalan, quyosh va shamol energetikasida ishlash uchun mutaxassislar kerak bo‘ladi.

3. Ekologik zararlarning kamayishi Yashil iqtisodiyot atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytirib, iqlim o‘zgarishi xavfini pasaytiradi. Natijada, sog‘liqni saqlash xarajatlari ham kamayadi.

4. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish Barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan yashil texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu texnologik taraqqiyotga olib keladi.

5. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish Yashil iqtisodiyot global masalalarni hal qilishda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Xalqaro kelishuvlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ekologik loyihalarni kengaytirishga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyotning xavflari

1. Yuqori boshlang‘ich xarajatlar Yashil texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish katta sarmoyani talab qiladi. Bu ba’zi mamlakatlar uchun moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Texnologik qaramlik Ayrim mamlakatlar rivojlangan davlatlardan texnologik jihatdan qaram bo‘lib qolishi mumkin. Bu esa iqtisodiy mustaqillikka putur yetkazadi.

3. Ijtimoiy noaniqlik An’anaviy energetika sektoridagi ish o‘rinlarini yo‘qotish ba’zi hududlarda ishsizlikni oshirishi mumkin. Bu ijtimoiy tanglikka olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

4. Atrof-muhitga bilvosita zarar Ba’zi yashil texnologiyalar, masalan, elektr transport vositalari uchun akkumulyator ishlab chiqarish yoki shamol turbinalarini o‘rnatish ham atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

5. Qonunchilik va siyosiy qiyinchiliklar Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur bo‘lgan islohotlarni joriy etishda siyosiy va huquqiy to‘silalar paydo bo‘lishi mumkin.

Barqaror rivojlanish uchun strategiyalar

1. Qonunchilik bazasini mustahkamlash Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish zarur.

2. Ta’lim va xabardorlikni oshirish Barqaror rivojlanish bo‘yicha aholining xabardorligini oshirish va yangi texnologiyalarni boshqarishga qodir kadrlarni tayyorlash muhim.

3. Investitsiyalarni jalb qilish Xususiy sektor va xalqaro tashkilotlardan yashil texnologiyalarga investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish mumkin.

4. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish Suv, yer va energiya kabi resurslardan oqilona foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish kerak.

5. Global hamkorlikni mustahkamlash Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda boshqa davlatlar bilan birgalikda ishlash hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi **Iqlim bo'yicha Parij bitimini** (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qildi va uni amalga oshirish bo'yicha milliy miqyosda belgilangan ulush - 2030yilgacha YalM birligiga to'g'ri keladigan parnik gazlar chiqarilishini 2010-yil darajasidan 10 foizga kamaytirish bo'yicha miqdoriy majburiyatni o'z zimmasiga oldi.

Mamlakatda Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida parnik gazlar chiqarilishini kamaytirishning o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlari iqtisodiyotda energiya va resurs ko'p ishlatalishini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejovchi texnologiyalari keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo'yida ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutuvchi qator strategik va tarmoq rejalar, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, dunyo bo'yicha atrof-muhitning holati va ifloslanishi bo'yicha tadqiqotga ko'ra, deyarli barcha tabiiy resurslar jiddiy antropogen bosimga duchor bo'lgan. Bu kabi ekologik iqtisodiy muommalar iqtisodiyotni yashillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni "Yashillashtirish"ning asosiy usullaridan biri innovatsiyalar va faoliyatning turli sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. 2020-yilda ko'plab kompaniyalar raqamlashtirish tizimiga tez o'tgandan so'ng, iqtisodiyotni tubdan qayta qurish bosqichi boshlandi. Demak, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan yangi iqtisodiy faoliyat hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ijobiy tomonlari:

- ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi hisobiga mehnat unumdarligining o'sishi;
- yangi yashil ish o'rnlari yaratilishi, shuningdek frilansning rivojlanishi;
- kompaniyalar raqobatbardoshligining ortishi uchun imkoniyatlar yaratilishi va shuningdek ekologik mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi; □ qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikning bartaraf qilinishi.

Demak, yashil iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarni qo'llash mohiyat, barqaror rivojlanish texnologiyalarni yaratilishiga olib keladi.

XXI asr boshida Birlashgan Millatlar Tashkiloti insoniyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari o'zaro bog'liq bo'lgan 17 ta global maqsadlarni ilgari surdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan qo'llabquvvatlangan Oksford universitetining Global tiklanish observatoriysi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotiga ko'ra, qayta tiklash uchun umumiylar xarajatlarning 20% dan kamrog'i atrof-muhit muammolariga ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 2-dekabrdagi «2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar

samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-436-son qarori qabul qilindi.

2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan:

- issiqxona gazlarining ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 35%ga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30%idan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20%ga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30%ga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliغا 200 mln ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 mlrd dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30%dan ortiqroqqa kengaytirish;

qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash darajasini 65%dan oshirish va boshqalar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi «yashil» iqtisodiyotni ilgari surish va «yashil» o'sish tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartirishga doir faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi.

Hozirda global biznes iqlim o'zgarishining oldini olishga va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni rivojlantirishga katta miqdordagi resurslarni yo'naltirmoqda. Muqobil energiya manbalari-bu gidroenergetika, shamol energiyasi, quyosh energiyasi, geotermal energiya, biomassa va suv toshqini energiyasidan foydalanish orqali olinadigan qayta tiklanadigan energiya manbalari. Bu energiya manbalari neft, tabiiy gaz, ko'mir va uran rudasi kabi qazib olinadigan yoqilg'ilardan farqli o'laroq, tugamaydi, shuning uchun ular qayta tiklanadigan manbalar deb ataladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda energiya ishlab chiqarish obyektlarining umumiy quvvati o'sib bormoqda, ammo rivojlanish sur'ati Yaqin xorijiy mamlakatlar xususan Rossiyaga qaraganda ancha past. O'zbekiston iqlim o'zgarishi oldida eng zaif davlatlardan biri hisoblanadi, chunki mamlakat hududining 80 foizini o'tloqlar va cho'l hududlari egallaydi, shu sababli iqlim o'zgarishi O'zbekiston iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. 50-yillarning boshidan buyon mamlakatda o'rtacha harorat global isish tezligidan ikki baravar ko'tarildi. Hozirgi proqnozlar ko'rsatishicha, zarur yumshatish choralar ko'rilmasa, 2050-yilga kelib mamlakatda o'rtacha harorat $1,8^{\circ}$ - $3,3^{\circ}$ C gacha ko'tariladi. Qo'shimcha moslashish choralarisiz, shu asrning o'rtalariga kelib, mamlakat suv tanqisligi kuchayishi, cho'llanish kuchayishi, qurg'oqchilik va yerlar degradatsiyasiga duch kelishi mumkin. Bunday ekstremal ob-havo qishloq xo'jaligi, turizm, sog'liqni saqlash va infratuzilmaga salbiy ta'sir ko'rsatib, O'zbekiston rivojlanishini

cheklaydi. Iqlim o‘zgarishining oqibatlari Orol dengizining ekologik halokatida allaqachon namoyon bo’ldi.

Bugungi kunda O’zbekiston o’zining hozirgi rivojlanish modeli bo'yicha o'sish chegaralarini yengib o'tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo'lib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo'lidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi. Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallahuviga tayangan holda, o'z iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarda yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan Moslashuvchan, Inklyuziv, Barqaror va Samarador (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli "yashil" o'sish modeli sari yo'lni belgilash bo'yicha qadamlar tashlamoqda. Lekin, yanada barqaror va "yashil" iqtisodiyotga aylanish uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak.

O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning rolini kuchaytirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur:

Birinchidan, aholini atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to'g'risida axborot bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi sifatini oshirish darkor. Uchinchidan, "yashil" davlat xaridlari siyosatini olib borish orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotning energiya salohiyatini oshirishda "yashil" texnologiyalardan samarali foydalanish kerak.

Va nihoyat beshinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida "yashil" infratuzilmaga sarflanadigan davlat investitsiyalari hajmini oshirish lozim.

Barqaror rivojlanish - jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli bo'lib, unga bosqichma bosqich o'tish jarayonida yashil iqtisodiyotga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biz keljak avlodlar uchun yanada taraqqiy etgan barqaror rivojlanish asosidagi iqtisodiyotni ta'minlashga erishamiz desak hecham shubha qilmagan bo'lamic.

Xulosa va tavsiyalar

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish global muammolarning yechimida muhim o'rinn tutadi. Imkoniyatlar va xavflarni muvozanatli boshqarish uchun quyidagi choralarga e'tibor qaratish lozim:

- Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.
- Ekologik ta'lim va aholining xabardorligini oshirish.
- Innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun moliyaviy va texnologik yordam ko'rsatish.

- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va tajriba almashishni yo'lga qo'yish. Barqaror rivojlanish yo'lida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish jamiyatning iqtisodiy va ekologik farovonligini ta'minlash uchun muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamovna K. N. State Support Areas for the Cultivation of Medicinal Plants in Agriculture. – 2023.
2. Khidirovich E. R. et al. Issues of Development of the Pharmaceutical Industry on the Basis of Improving the Cultivation of Medicinal Plants. – 2023.
3. Rustamovna K. N. Ways to Improve the State and Efficiency of Growing Medicinal Plants in the Kashkadarya Region //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2023. – T. 3. – №. 6. – C. 7884.
4. Khamraeva S., Ochilova N. Assessment of innovative potential of farmers and homestead land owners //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 480. – C. 03003.
5. Ochilova N. A. Use of the Advanced Experience of Foreign Countries in the Development of Peasant and Homestead Farms //International Journal of Formal Education. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 267-274.
6. Ochilova N. A. et al. Improving the Use of Agricultural Land in Kashkadarya Region //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2022. – T. 4. – №. 3. – C. 49-54.
7. Ergashev R., Xo'jaqulova N. QASHQADARYO VILOYATIDA DORIVOR O 'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH HOLATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI //THE INNOVATION ECONOMY. – 2023. – T. 1. – №. 01. – C. 70-75.
8. Otamurodovna K. G. Ways Of Effective Usage Of The Potential Of Natural Resources In The Development Of Industrial Enterprises In The Regions //Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 44-49.
9. Xojanova G. O. Показатели Развития Промышленного Кластера //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain). – 2023. – C. 78-82.
10. Khojanova G. O. INVESTMENT AS A MEANS OF DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF ENTERPRISE PRODUCTION CAPACITY //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1 (81). – C. 171-175.
11. Khojanova G. O. NATURAL RESOURCES, THEIR TYPES AND INITIAL APPROACHES //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 83-86.

12. Samiyeva G. Ijtimoiy sohada maqsadli jamg ‘armalar va ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirishning xorij tajribasi //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – T. 2. – №. 02.
13. Самиева Г. АХОЛИ ФАРОВОНИЛГИНИ ОШИРИШДА ИЖТИМОЙ ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ //Nashrlar. – 2023. – С. 509-511.
14. Самиева Г. Т. ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 1341-1345.
15. 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori
- 16."O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."
- 17..Хашимова С.Н.Яшил иқтисодиёт тараққиёт гарови. /Бизнес-эксперт.№3,2022
18. Корнева А.А. “Зеленая” экономика и цифровизация в экономической основе концепции устойчивого развития // Научный сетевой журнал “Интеграл” №4/2022.